

## JAHON XIZMATLAR BOZORIDA TARKIBIY O'ZGARISHLARNING TENDENSIYA VA ISTIQBOLLARI

**Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri

email: [uzakova.dilnoza98@mail.ru](mailto:uzakova.dilnoza98@mail.ru)

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 8

DOI:[https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1\\_iss8/a18](https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/a18)

### ABSTRACT

Maqolada Jahon xizmatlar bozori tarkibiy o'zgarishlari, xizmatlar sektorining o'ziga xos jihatlari, xizmat ko'rsatish sohalarinng tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, Jahon xizmatlar bozorida xizmatlar eksporti hajmining yillar davomida o'zgarishi tahlil qilingan bo'lib, bu orqali jahon xizmatlar eksportining proqnozi tahlil qilingan.

### KEYWORDS

Jahon xizmatlar bozori, eksport, xizmatlar, xizmatlar eksporti, ARIMA.

### Kirish (Introduction/Введение).

Xizmatlar sohasi mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda, aholining ish bilan bandligini ta'minlashda, innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotni amalga oshirishda, xalqaro savdoda, aholining turmush darajasini yaxshilashda, urbanizatsiyalashuv darajasi va infratuzilmani yaxshilashda ahamiyati yuqori.

Xizmat ko'rsatish sohasi ishlab chiqarish, sanoat yoki qishloq xo'jaligiga nisbatan barqarorligi bilan ahamiyati yuqori hisoblanadi. Xizmatlar sohasining moslashuvchanligi iqtisodiy inqiroz holatlarda ham boshqa tarmoqlarga nisbatan tezroq o'zini tiklash holatlari kuzatiladi. Buni taklif etilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi, o'zgaruvchan iste'molchilarning xohish-istiklariiga moslashish qobiliyatini omillar bilan izohlaniadi.

Jahon xizmatlar xizmatlar eksporti 2020-yilda 17,2 foizga pasaygandan so'ng, 2021 – 2022-yillarda jahon xizmatlar eksporti oshdi. 2022-yilda jahon xizmatlar eksporti hajmi 14,8 foizga oshdi. 2022-yildagi jami xizmatlar 7,1 trillion AQSh dollarga baholangan.

2022-yilda xizmatlar eksportining YaIMdag'i ulushi 21 ta davlatda 30 foizdan oshdi. Bunda turizm sohasidagi eksporti muhim ahamiyatga ega bo'lgan kichik orol mamlakatlar yoki biznes va moliyaviy xizmatlar eksportiga ega bo'lgan boshqa kichik iqtisodiyotlar asosiy ulushga ega. Ta'kidlash joizki, Lyuksemburg va Sint-Martendagi (Gollandiya takibiy qismi) xizmatlar eksporti ularning yalpi ichki mahsulotning mos ravishda 162 va 133 foizini tashkil etdi.

Rivojlanish holati va hududlar bo'yicha tendentsiyalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan boshqa iqtisodiy guruhga kiruvchi mamlakatlarda 2020-yildan boshlab hozirga qadar xizmatlar savdosi tiklanishining barqaror davom etmoqda. Eng yuqori o'sish suratlari Amerikaning rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda kuzatildi, bu yerda turizm va transport sohalarini xizmatlar sohasining pandemiyadan keyin tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

### Mavzuga doir adabiyotlar tahlili (Literature review/Литературный обзор).

Global telekommunikatsiya sanoatiga texnologik o'zgarishlar, bozor talabining o'zgarishi, tartibga solish tizimidagi o'zgarishlar, globallashuv jarayoni sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Yirik firmalar o'z strategiyalari va tuzilmalarini joriy sanoat o'zgarishlarini hal qilish va kelajakdagi evolyutsiyaga tayyorgarlik ko'rish uchun moslashtirmoqda, bu esa global xizmat ko'rsatish sohalarining kelajakdagi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi [1]. Iqtisodchi olim M. Dowling

telekommunikatsiya xizmatlarining iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati to'g'risida tadqiqotini olib boradi.

Xizmat ko'rsatishga o'tish turmush darajasining o'sishi, bo'sh vaqtning ko'payishi, turmush tarzining o'zgarishi, texnologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq [2]. Iqtisodchi olim M. Jovic axborot texnologiyalarining rivojlanishi va aloqa xaratjatlarining kamayishi xizmatlarning xalqaro savdosini sezilarli darajada yaxshilagani, shu bilan birga COVID-19 inqirozi texnologiya va xizmat ko'rsatish sohasida uzoq muddatli texnologik o'zgarishlarni amalga oshirish muhimligini ta'kidlagan.

Xizmatlarning globallashuvi rivojlanayotgan mamlakatlarga xizmatlardan o'sish manbai sifatida foydalanish imkonini berdi[3]. Tadiqotchi Hemant Kumari Xizmat ko'rsatish sohasining o'sishi iqtisodiy taraqqiyotni ko'rsatish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, rivojlanayotgan mamlakatlar jahon xizmatlar eksportidagi ulushning ortib borayotganini ko'rsatmoqda.

Xizmatlar sohasi deyarli barcha mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot va bandlik ulushi sifatida jadal rivojlanmoqda[4]. Mozammel Huq xizmat ko'rsatish sohasi jahon iqtisodiyotida, jumladan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham jadal sur'atlar bilan kengayib borayotganligi ta'kidlaydi.

Jahon moliyaviy xizmatlar bozorida takoful rivojlanib bormoqda[5]. Iqtisodchi olim U.Dababaev o'z tadqiqotida global islam moliya bozoridagi tendensiya, aynisa takoful sanoatining hozirgi ahvolini tahlil etgan.

Jahon iqtisodiyoti tarkibida xizmatlar sohasining ulushi yildan yilga oshib bormoqda. Xizmatlar sohasi tarkibida turizm sektori muhim rol o'ynaydi[6]. Tadqiqotchi T.Qulmanov xorijlik turistlar soni va internetdan foydalanuvchilar soni o'rtaida ijobji bog'liqlik mavjud ekanligi, bu esa, internet foydalanuvchilar uchun imkoniyat yaratish, turistlari jalb qilishda ijtimoiy tarmoq va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish ko'proq samara berishini ta'kidlagan.

Jahon xizmatlari bozori so'nggi yillarda globallashuv, texnologik taraqqiyot va xizmat ko'rsatish sohasining yuksalishi kabi omillar ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga duch keldi [7]. Ushbu o'zgarishlar raqobatning kuchayishiga va yangi qoidalar va tendentsiyalarga moslashish zarurligiga olib keldi [8]. Xizmat ko'rsatish sohasi, xususan, sanoatdan keyingi iqtisodiyotlarda, texnologik vositachilikning ortib borayotgan ahamiyati, iste'molchilar va professional rollarning o'zgarishi va iste'molchi qarorlarini qabul qilishda aloqador omillarning ahamiyati pasayishi bilan misli ko'rilmagan o'zgarishlarga duch

Maxsus son 2024

kelmoqda [9]. Jahon xizmatlari savdosi ishlab chiqarilgan mahsulotlar va tovarlarga qaraganda tezroq o'sib bormoqda [10,11]. 2040 yilgacha xizmat ko'rsatish savdolari global savdodagi ulushini 50 foizga oshirishi mumkin [12,13]. Ayniqsa mamlakatimizda ijtimoiy himoyani ta'minlashda hayot sug'urtasining o'rni beqiyos hisoblanadi. Hayot sug'urtasi o'zda ham ximoya va investisiyaning elementlarni mujassam etgan yagona sug'urta turi hisoblanadi. Hayot sug'urtasi davlat ta'minlashi kerak bo'lgan muayyan ehtiyojlanı qondorishni hal qiluvchi rol o'ynaydi. Keksalik, qarilik va umumiy nogironlik bilna bog'liq ma'lum moliyaviy harajatlarni ta'minlashda hayot sug'urtasi o'zing munosib o'rniga ega. [14] Tadqiqotimizda yuqoridaq olimlardan farqli ravishda jahon xizmatlari bozorida xizmatlar eksportining yillar davomida o'sishini prognoz qilishni maqsad qilganmiz.

**Tadqiqotni amalga oshirishda foydalilanigan usullar**  
(Methods/Методы). Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, empirik tahlil, ARIMA model, prognozlashtirish va boshqa uslublardan foydalanildi.

**Olingan natijalar (Results/Результаты).** Olib borilgan natijalar natijasida jahon xizmatlari eksportining 2024-yildan 2029-yilgacha bo'lgan prognozi hisoblab topildi va prognoz qilingan davr mobaynida jahon xizmatlari eksporti o'sish tendensiyasiga ega bo'lishi aniqlandi.

#### Tahlillar (Analysis/Анализ).

Tadqiqotimizning tahlil jarayonlarida, tahlil natijalarini testdan o'tkazishda, prognozlashtirishda, modellashtirishda STATA.17 tahlili dasturidan dasturidan foydalandik. Tahlilda ARMA modelidan foydalandik, bu orqali ma'lumotlarni silliqlash va prognoz qilishni maqsad qildi. Ma'lumotlarni ARMA modeli orqali tahlilini amalga oshirish uchun o'rganayotgan ma'lumotlarimiz statsionar - vaqtlar oralig'ida tebranishi zarur hisoblanadi. Agar ma'lumotlarimiz statsionar bo'lmasa, ma'lumotlarimiz o'rtasidagi farqlarni statsionarlarga tekshirishimiz lozim va modelimiz ARIMAg'a o'zgaradi. Ya'ni avtokorrellyatsiyalar (AR) sonini hamda harakatlanuvchi o'rtacha (MA) qiyatlar soni bilan birlgilikda farqlanishlar sonimi (I) ham hisobga olish zarur bo'ladi.

ARIMA modelari odatda ARIMA(p,d,q) tarzda bo'ladi va p,d,q elementlarni topish asosiy masalalardan hisoblanadi.

$$Y_t = c + \sum_{i=1}^p \alpha Y_{t-i} + \sum_{j=1}^q \theta E_{t-j} + E_t \quad (1)$$

Bu yerda:

$Y_t$  = vaqt qatorining t vaqtidagi qiyatini ifodalaydi ( $Y_t$  represents the value of the time series at time  $t$ );  $c$  = konstanta ( $c$  is a constant term);  $p$  = avtokorrellyatsiyalar (AR) sonini ko'rsatadi ( $p$  represents the number of autoregressive (AR) terms);  $q$  = harakatlanuvchi o'rtacha (MA) qiyatlar sonini ifodalaydi ( $q$  represents the number of moving average (MA) terms);  $\alpha$  = avtokorrellyatsiyalar (AR) uchun koefitsiyentlar ( $\alpha$  are the coefficients of the autoregressive terms, representing the impact of previous values of the time series on the current value);  $\theta$  = oldingi xatolarning joriy qiyatga ta'sirini ifodalovchi harakatlanuvchi o'rtachalarning koefitsiyentlari ( $\theta$  are the coefficients of the moving average terms, representing the impact of previous errors on the current value.);

$Y_{t-1}$  = vaqt qatorining kechikkan qiyatlarini ifodalaydi ( $Y_{t-1}$  represents the lagged values of the time series.);

$E_t$  = kuzatilgan qiyat va model tomonidan bashorat qilingan qiyat o'rtasidagi farqni ushlaydigan t vaqtidagi xatolikni ifodalaydi ( $E_t$  represents the error term at time  $t$ ).

#### 1-jadval

Jahon xizmatlar eksporti hajmi dinamikasi<sup>1</sup>

Nº	Yillar	Xizmatlar eksport hajmi
1.	2008	4,085993 trln AQSh dollar
2.	2009	3,664835 trln AQSh dollar
3.	2010	3,989556 trln AQSh dollar
4.	2011	4,485007 trln AQSh dollar
5.	2012	4,614542 trln AQSh dollar
6.	2013	4,896846 trln AQSh dollar
7.	2014	5,254501 trln AQSh dollar
8.	2015	5,021226 trln AQSh dollar
9.	2016	5,097663 trln AQSh dollar
10.	2017	5,554089 trln AQSh dollar
11.	2018	6,122528 trln AQSh dollar
12.	2019	6,314659 trln AQSh dollar
13.	2020	5,22831 trln AQSh dollar
14.	2021	6,209934 trln AQSh dollar
15.	2022	7,127056 trln AQSh dollar
16.	2023	7,625727 trln AQSh dollar

Jahon xizmatlari bozorida xizmatlar eksportini tahlil qilish uchun jahon xizmatlari eksporti hajmi 2008-yildan 2023-yilgacha bo'lgan ma'lumotlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining savdo va rivojlanish dasturi rasmiy saytidan olindi. O'rganilayotgan davr mobaynida jahon xizmatlari eksporti 4,08 trln AQSh dollardan 7,62 trln AQSh dollargacha

o'zganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu davrda Jahon moliyaviy inqirozi va COVID-19 pandemiyasi ta'siri natijasida mos ravishda 2009-tilda va 2020 yilda xizmatlар eksporti hajmi tushganligini ko'rishimiz mumkin.


Tahlil davrida jahon xizmatlari eksportining eng kam ko'rsatkichi 2009-yilga to'g'ri keladi. Ayni shu vaqtda butun dunyo Jahon moliyaviy inqirozin boshdash kechirayotgan edi. Pandemiya natijasida 2020-yilda 2019-yilga nisbatan jahon xizmatlari eksporti hajmi 1,1 trln AQSh dollariga teng miqdorda tushdi. O'rganilayotgan davrda eng yuqori ko'rsatkich 7,62 trln AQSh dollar bo'lib, jahon xizmatlari eksporti hajmi 2023-yilda ushbu ko'rsatkichga erishdi.

#### 2-jadval

Dickey-Fuller testi natijalari<sup>2</sup>


Mezonlar	Qiymatlar
Test statistic	-3.918
p-value	0.0019
Number of lags	0
Number of obs	14
Critical value (1%)	-3.750
Critical value (5%)	-3.000
Critical value (10%)	-2.630

Berilgan ma'lumotlarimizni statsionarlik testiga tekshirishda Dickey-Fuller testidan foydalandik. Jahon xizmatlari eksporti hajmi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarimizni to'g'ridan to'g'ri statsionarlikka tekshirganimizda statsionar emas ekanligi aniqlandi. Shundan so'ng, statistik ma'lumotlarimizning farqlarini statsionarlarga tekshirib ko'rdik. Natijada, jahon xizmatlari eksporti hajmi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarimizning farqlarini statsionar ekanligi aniqlandi. Bunda sinov statistikasining qiyamti -3,918ga teng va bu kritik qiyatlarining 10%, 5% va 1% qiyatlaridan kichkina ekanligini ko'rsatadi. MacKinnonning sinov testi Z(t)ning p qiyamti 0,0019 ni tashkil qildi. Bu ko'rsatakichlar ma'lumotlarimizning 1-tartibli farqlarini statsionar ekanligi aniqlandi. Bu esa bizning ARIMA (p,d,q) modelimizdagi d parametrimiz 1 ga teng ekanligini ko'rsatadi.



1-rasm. Jahon xizmatlari eksporti hajmi birinchi tartibili farqlarining qisman avtokorrellyatsiyalar grafigi<sup>3</sup>

ARIMA (p,d,q) modelimizda p parametrimizni aniqlash uchun Jahon xizmatlari eksporti hajmining 1-tartibli farqlarining qisman avtokorrellyatsiyalar grafigini hosil qilib oldik. Bu bizga 95 foiz ishonchilik bilan belgilan qiyatda tashqaridagi autokorrellyatsiyalar nuqtalari soni 3 ta teng ekanligi aniqlandi. Shuning bilan birlgilikda 1 ta autokorrelatsiya nuqtasi 95 foizlik ishonchilik darajasiga yaqin bo'lgani uchun p parametrimiz 2 va 3 qiyatlarida modelga solib ko'ramiz (1-rasm).



2-rasm. Jahon xizmatlari eksporti hajmi birinchi tartibili farqlarining avtokorrellyatsiyalar grafigi<sup>4</sup>

ARIMA (p,d,q) modelimizda q parametrimizni aniqlash uchun Jahon xizmatlari eksporti hajmining 1-tartibli farqlarining avtokorrellyatsiyalar grafigini hosil qilib oldik. Bu bizga 95 foiz ishonchilik bilan belgilan qiyatda tashqaridagi harakatlanuvchi o'rtacha qiyatlar sonini (represents the number of moving average terms) yo'q ekanligini ko'rishmiz mumkin. Bundan ARIMA (p,d,q) modelimizda q parametrimizning qiyamti 0 ekanligi ma'lum bo'ldi. (2-rasm).

Maxsus son 2024

ARIMA (p,d,q) modelimizdagи p, d va q parametrlarni yuqoridaq amallarni bajargan holda hisoblab topdik. Bunda biz ARIMA (2,1,0) va ARIMA (3,1,0) modellarini regressiyalarini ko'rib chiqamiz.

## 3-jadval

ARIMA (2,1,0) regressiyasi <sup>5</sup>						
D.Xizmatlar eksporti	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf]	Interval]
Constant	.23	.134	1.71	.087	-.033	.493 *
L	-.132	.261	-0.51	.612	.644	.379
L2	-.49	.484	-1.01	.311	-1.438	.458
Constant	.436	.074	5.87	0	.291	.582 ***
Mean dependent var		0.236	SD dependent var		0.520	
Number of obs		15	Chi-square		2.889	
Prob > chi2			Akaike crit. (AIC)		26.249	

\*\*\* p&lt;.01, \*\* p&lt;.05, \* p&lt;.1

ARIMA (2,1,0) regressiyada konstant qiymat 0,23 ga teng va bu mustaqil o'zgaruvchilar nolga teng bo'lganda, qaram o'zgaruvchining kutilgan qiymatini ifodalaydi. L va L2 qaram o'zgaruvchining kechikkan qiymatlari. L va L2 bilan bog'liq koeffitsientlar mos ravishda -0,132 va -0,49 ni tashkil qildi. Ushbu koeffitsientlar kechikkan qiymatlarning qaram o'zgaruvchining joriy qiymatiga ta'sirini ko'rsatadi. Bunday holda, ular salbiy bo'lib, kechikkan qiymatlari oshishi bilan joriy qiymat kamayadi lekin p>0,1 qiymatda statistik jihatdan ahamiyatsiz hisoblanadi.

## 4-jadval

ARIMA (2,1,0) model uchun Akaike va Bayesian ma'lumot mezonlari <sup>6</sup>					
Obs	ll(null)	ll(model)	df	AIC	BIC
15	.	-9.124	4	26.249	29.081

Akaike ma'lumot mezon (Akaike's information criterion, AIC) qiymati 26,249 ga teng ekanligi hisoblab topildi. Bayesian ma'lumot mezon (Bayesian information criterion, BIC) qiymati 29,081 ga teng bo'ldi. Bu qiymatlari eng yaxshi modelni tanlab olish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

## 5-jadval

ARIMA (3,1,0) regressiyasi <sup>7</sup>						
D.Xizmatlar eksporti	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf]	Interval]
Constant	.209	.045	4.63	0	.12	.297 ***
L	-.582	.338	-1.72	.085	-.1243	.08 *
L2	-.723	.273	-2.65	.008	-.1258	-.189 ***
L3	-.698	.342	-2.04	.041	-.1368	-.028 **
Constant	.335	.107	3.12	.001	.124	.545 ***
Mean dependent var		0.236	SD dependent var		0.520	
Number of obs		15	Chi-square		8.026	
Prob > chi2			Akaike crit. (AIC)		22.724	

\*\*\* p&lt;.01, \*\* p&lt;.05, \* p&lt;.1

ARIMA modelidagi konstant 0,209 ga teng. Bu barcha kechikkan qiymatlari nolga teng bo'lganda, bog'liq o'zgaruvchining kutilgan qiymatini bildiradi va bu p<0,01 da statistik jihatdan ahamiyatlari hisoblanadi.

L, L2 va L3 bog'liq o'zgaruvchining kechikkan qiymatlarini ifodalaydi. ARIMA modelida ular avtoregressiv qiymatlariga mos keladi. Har bir koeffitsient tegishli kechikish qiymati bog'liq o'zgaruvchining joriy qiymatiga ta'sirini ifodalaydi. Barcha koeffitsientlar salbiy bo'lib, kechikkan qiymatlari oshgani sayin, joriy qiymat pasayadi. L, L2 va L3 uchun koeffitsientlar mos ravishda -0,582, -0,723 va -0,698. Ya'ni, boshqa kechikish qiymatlari ta'sir qilmagan holatda birinchi tartibli kechikish qiymati bir birilikka oshishi joriy qiymatning 0,582 birlikka kamayishiga sabab bo'ladi va bu p<0,1 da statistik jihatdan ahamiyatlari hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, boshqa kechikish qiymatlari ta'sir qilmagan holatda ikkinchi tartibli kechikish qiymati bir birilikka oshishi joriy qiymatning 0,723 birlikka kamayishiga sabab bo'ladi va bu p<0,05 da statistik jihatdan ahamiyatlari hisoblanadi.

## 6-jadval

ARIMA (3,1,0) model uchun Akaike va Bayesian ma'lumot mezonlari <sup>8</sup>					
Obs	ll(null)	ll(model)	df	AIC	BIC
15	.	-6.361988	5	22.723	26.264

Akaike ma'lumot mezon (Akaike's information criterion, AIC) qiymati 22,723 ga teng ekanligi hisoblab topildi. Bayesian ma'lumot mezon (Bayesian information criterion, BIC) qiymati 26,264 ga teng bo'ldi.

Eng yaxshi modelni tanlash mezonlari bo'yicha quyidagi amallarni bajaramiz:

- dastlab, model komponentlarining statistik jihatdan ahamiyatlari ekanligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Bizda ARIMA (3,1,0) modelimizning komponentlari ko'poq ahamiyatlari ekanligini ma'lum bo'ldi.

- ikkinchidan, konstant qiymatlari solishtirib ko'rildi va ARIMA (3,1,0) modelimizning konstant qiymati kichik ekanligi aniqlandi.

## 7-jadval


Eng yaxshi modelni aniqlash jadvali<sup>9</sup>

Mezon	Model		Eng yaxshi model
	Model A ARIMA(2,1,0)	Model B ARIMA(3,1,0)	
C, AR&MA	3/0	4/3	Model B
SigmaSQ	0,436	0,335	Model B
Log likelihood	-9.124	-6.362	Model B
Akaike	26.248	22.723	Model B
Bayesian	29.081	26.264	Model B
Eng yaxshi model			Model B

- uchinchidan, Jurnal ehtimolligi (Log likelihood) qiymatini katta qiymati modelni qonuniyatga yaqinligini bildiradi. Hisob kitoblarimizda bu qiymat ham ARIMA(3,1,0) modelda katta ekanligi topildi.

- to'rtinchidan, Akaike va Bayeseian ma'lumot mezonlari qiymatlarning kichigini qabul qilgan model eng yaxshi model hisoblanadi. Bizning hisob kitoblarimizda har ikki ma'lumot mezonlarining qiymatlari ARIMA(3,1,0) modelda kichik chiqdi.

- so'ngida, har bir bosqich bo'yicha eng yaxshi model tanladi va bu ARIMA(3,1,0) modeli bo'ldi. Ma'lumotlarni prognozlashtirish va ularni silliqlashtirish uchun ARIMA (3,1,0) modeli tanlab olindi.

3-rasm. Model qoldiqlarining tebranishi<sup>10</sup>

Model qoldiqlari 0 atrofida statcionar tebranishi, jahon xizmatlar eksporti hajmining prognozini topish mumkinligini ko'rsatadi(3-rasm). Bunda Portmanto (Q) statistikasi 2,0342 ni tashkil qildi. 5 erkinlik darajasi bilan chi-kvadrat taqsimoti bilan bog'liq ehtimollik qiymati (Prob) 0,8444 ni tashkil qiladi.


Shu nuqtai nazardan:

Nol gipoteza - odatda qoldiqlarda avtokorrelatsiya yo'qligini bildiradi (ya'ni, ular oq shovqin, white noise).

Muqobil gipoteza - avtokorrelatsiya mavjud.

Ehtimollik qiymati yuqori bo'lgani uchun ( $0,8444 > 0,05$ ), biz nol gipoteyzani rad eta olmaymiz va bu avtokorrelatsiya yo'qligini ko'rsatadi.

AR komponenti kuzatuv va bir qator kechikkan kuzatuvlar (ya'ni, o'zining o'tmisidagi qiymatlari) o'rtasidagi munosabatni qamrab oladi. Murakkab xos qiymatlarning mavjudligi turli vaqt nuqtalarida kuzatuvlar o'rtasida ma'lum darajada bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi, bu vaqt seriyasi ma'lumotlariga xosdir. Xususiy qiymatlarning modullari har bir xos qiymatning kattaligi yoki mutlaq qiymatini ifodalaydi. Bunday holda, barcha modullar 1 dan kichik bo'lib, ular birlik doirasi ichida yotganligini ko'rsatadi. Bu ARIMA modellashtirishda barqarorlik uchun zaruriy shartdir. Xususiy qiymatlarning modullari 1 dan kichik bo'sha, bu jarayon barqaror va vaqt o'tishi bilan model ishonchiligidagi salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy raqamlar qabul qilmasligini ko'rsatadi.

4-rasm. Xususiy qiymat barqarorligi sharti grafigi<sup>11</sup>

Avtoregressiv parametrlerning barqarorligi ARIMA modelining umumiylar barqarorligi uchun juda muhimdir. Agar avtoregressiv parametrler beqaror bo'lsa (ya'ni, o'z qiymatlari modullari 1 dan katta

Maxsus son 2024

bo'lsa), bu model noto'g'ri va oldindan aytib bo'lmaydigan prognozlarni ishlab chiqarishi mumkinligini anglatadi. Bu esa uni xulosa qilish va bashorat qilishda hisob kitoblarning noto'g'ri chiqish ehtimolini oshiradi (4-rasm).

Jahon xizmatlar eksporti hajmining prognozları <sup>12</sup>		8-jadval
Nº	yillar	Jahon xizmatlar eksporti
1.	2024	6,613666 trln AQSh dollar
2.	2025	6,828464 trln AQSh dollar
3.	2026	7,714035 trln AQSh dollar
4.	2027	8,376378 trln AQSh dollar
5.	2028	7,827130 trln AQSh dollar
6.	2029	7,676232 trln AQSh dollar

Bu yerda 2024-2029 yillarda uchun ARIMA modeli bo'yicha jahon xizmatlarini eksporti hajmi bo'yicha prognozlamni berilgan. Mana, bashorat qilingan qiymatlar:

2024 yil uchun prognoz qilinayotgan jahon xizmatlarini eksporti hajminan 6,614 trillion dollarni tashkil etadi. 2027-yilda jahon xizmatlarini eksporti hajmi taxminan 8,376 trillion dollarni tashkil etishi prognoz qilingan bo'lib bu prognoz qilingan yilda jahon xizmatlarini eksporti eng katta qiymatga erishadigan davr hisoblanadi. 2029 yilga kelib, jahon

xizmatlari eksporti hajmi taxminan 7,676 trillion dollargacha tushishi prognoz qilindi.

#### Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Xizmat ko'rsatish sohasidagilar 2026-2027 yillarda xizmat ko'rsatish hajmi oshishin hisobga olib, xizmat ko'rsatish hajmini oshirishi bo'yicha harakatlarni amalga oshishi lozim.

2028-yildan keyin ehtimoliy jahon xizmatlarini eksporti hajmi kamayish davrida xizmat ko'rsatuvchi subyektlar xizmat turlarini ko'paytirishi va xizmat ko'rsatish sifatini yana yaxshilash orqali xizmatlarini eksporti hajmini saqlab qolishlari mumkin.

Ushbu prognozlar ARIMA modelining tarixiy ma'lumotlar tahlili asosida belgilangan vaqt oraliq'ida jahon xizmatlari eksporti hajmining kutilayotgan trayektoriyasi haqidagi tushuncha beradi. Ular rejalashtirish, qarorlar qabul qilish va global xizmatlar sektoridagi potensial iqtisodiy tendensiyalarni baholash uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

#### References:

- Dowling, M., Boulton, W.R., & Elliott, S.W. (1994). Strategies for Change in the Service Sector: The Global Telecommunications Industry. California Management Review, 36, 57 - 88.
- Jovović, M., & Cvetković, K. (2022). Perspectives of international trade in services. Ekonomski signali.
- Kumari, H., & Gupta, S. (2013). AN ANALYSIS OF SERVICE SECTOR MARKETING MIX IN BANKING SECTOR.
- Huq, M.A., & Tribe, M. (2018). The Services Sector.
- Dadabaev, Umidjon & Laylo, Bobojonova. (2024). JAHON MOLIYAVIY XIZMATLAR BOZORIDA TAKOFULNING RIVOJLANISHI VA JORIY HOLATI. 1. 35-37. 10.55439/INSURE/voll\_iss7/a12.
- Qulmanov, Toshmurod. (2024). O'zbekistonga turistlar tashrifini ko'paytirishda raqamli texnolgiyalarning o'mi. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. 01 Number 07 (February) 2024. 660. 10.55439/GED/voll\_iss1.
- Long, G. (2005). Analysis of Countermeasures in National Services Trade Under WTO Frame. Learned Journal of Heilongjiang Financial College.
- Skornichenko, N., Sherstobitova, A.A., & Shnyakina, Y. (2019). Leading trends in the services sector: peculiarities, trends, and global perspectives. Proceedings of the 4th International Conference on Social, Business, and Academic Leadership (ICSBAL 2019).
- Laing, A., Lewis, B.R., Foxall, G.R., & Hogg, G. (2002). Predicting a diverse future: Directions and issues in the marketing of services. European Journal of Marketing, 36, 479-494.
- Rao, C.P., Kothari, V.B., & Kurtz, D.L. (2015). Global Marketing Opportunities in Services for Third World Business.
- Махмудов, С. (2023). ЛОГИСТИКА ТИЗИМИДАГИ КОРХОНАЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАРНИНГ ЭКОНОМЕТРИК ТАҲЛИЛИ. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(2), 392-403.
- Strunz, U. (2021). Introduction. FOM-Edition Research.
- Maxmudov, S. (2024). O'ZBEKISTONDA EKSPORT HAJMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ARDL MODELI ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLILINI BAHOLASH. Страховой рынок Узбекистана, 1(6), 11-15.
- Баратова , Д. (2024). Ҳаёт сугурутасининг аҳоли ижтимоий ҳимоясини таъминлашдаги ўрни. Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 14-16. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/111> ..